
Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining oltinchi chaqiriq yetmish beshinchi sessiyasi bo'lib o'tdi

Bugungi sessiyada hokim o'rinbosarlari, kun tartibiga kiritilgan masalaga dahldor tashkilot va muassasalar rahbarlari hamda mahalla fuqarolar yig'inlari raislari ishtirok etdi.

Sessiya kun tartibida quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 yanvardagi «Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5633-sonli Farmoni, 2019 yil 8 yanvardagi «Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4102-sonli qarori ijrosi bo'yicha 3-chorakda sektorlar kesimida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan mas'ullarning hisoboti.

Shaharda mahalliy byudjet daromadlarini bajarilishi holati, qo'shimcha rezervlarni aniqlash bo'yicha qilingan ishlar, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kesimida byudjetga va amalda to'langanligi, ular bo'yicha soliq qarzdorligi yuzasidan shahar davlat soliq inspeksiyasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar hisoboti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qarorining ijrosi to'g'risida.

Shahardagi ko'p qavatli uy-joylarni qishga tayyorgarligi hamda suv, gaz, elektr bilan ta'minlanganligi yuzasidan Farg'ona shahar Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan amalga oshirilgan ishlar hisoboti.

Shaharda 2022 yil 9 oyi mobaynida investitsiyalar jalb qilish va investitsiya loyihalarini bajarilishi to'g'risida.

Shaharda 9 oy davomida yangi ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash borasida shahar Bandlikka ko'maklashish markazi tomonidan amalga oshirilgan ishlar hisoboti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi «2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5863-sonli hamda 2021 yil 30 dekabrda «Respublikada ko'klamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-46-sonli Farmonlarini ijrosi bajarilishi yuzasidan shaharda 2022 yil 9 oy davomida amalga oshirilgan ishlar haqida shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish inspeksiyasining hisoboti to'g'risida.

"Saxovat va ko'mak" jamg'armasidan mablag' ajratish to'g'risida"gi masalalar ko'rib chiqildi.

Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari tomonidan muhokama, taklif va mulohazalardan so'ng qaror loyihasi deputatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-11-19 20:33:09